



**O‘RTA ASR UNIVERSITETLARINING SHAXS MA’NAVİY
KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDAGI FALSAFIY-MA’RIFIY
ASOSLARI**

Maxsudjonov Kamronjon Maxsudjonovich

Qarshi xalqaro universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy
ma’rifiy ishlar boshqarma boshlig‘i

Email: kmaqsudjonov@gmail.com

Tel: +99891 961 11 00

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘rta asr universitetlarining shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishdagi falsafiy-ma’rifiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy, aksiologik, fenomenologik va sotsiokulturniy metodlar qo‘llanilib, Sharq va G‘arb ta’lim maktablarining umumiy g‘oyaviy tamoyillari solishtirma tahlil asosida yoritilgan. Forobiy, Ibn Sino, Al-G‘azzoliy va Foma Akvinskiy singari mutafakkirlarning qarashlari orqali ma’naviy kamolot g‘oyasining ilm, axloq va e’tiqod uyg‘unligidagi o‘rni aniqlangan. Maqola xulosalariga ko‘ra, o‘rta asr universitetlari insonni komillikka eltuvchi ma’naviy-axloqiy muhit yaratgan hamda zamonaviy ta’lim falsafasiga g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: o‘rta asr universitetlari, shaxs ma’naviy kamoloti, falsafiy-ma’rifiy asoslar, Forobiy, Ibn Sino, Foma Akvinskiy, ma’naviyat, axloq, ta’lim falsafasi.

ABSTRACT

This article analyzes the philosophical and educational foundations of personal spiritual perfection in the medieval university system. Using historical-philosophical, axiological, phenomenological, and sociocultural methods, the study compares the moral-spiritual ideals of Eastern and Western educational traditions. The ideas of al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), al-Ghazali, and Thomas Aquinas are examined to reveal the synthesis of knowledge, morality, and faith in shaping human perfection. The findings show that medieval universities created a moral



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

environment aimed at the formation of a spiritually mature individual, which continues to influence the philosophical foundations of modern education.

Keywords: medieval universities, moral perfection, philosophical-educational foundations, al-Farabi, Ibn Sina, Thomas Aquinas, spirituality, ethics, philosophy of education.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются философско-просветительские основы формирования духовного совершенства личности в университетах Средневековья. С применением историко-философского, аксиологического, феноменологического и социокультурного методов проанализированы общие идеалы восточной и западной образовательных традиций. На примере идей Аль-Фараби, Ибн Сины, Аль-Газали и Фомы Аквинского показано единство знания, веры и нравственности в процессе формирования совершенной личности. Сделан вывод о том, что средневековые университеты создали духовно-нравственную среду, способствующую становлению личности и оказавшую значительное влияние на философию современного образования.

Ключевые слова: университеты Средневековья, духовное совершенство личности, философско-просветительские основы, Аль-Фараби, Ибн Сина, Фома Аквинский, духовность, нравственность, философия образования.

Kirish

Oʻrta asr universitetlari insoniyat sivilizatsiyasi tarixida chuqur iz qoldirgan madaniy va maʼrifiy hodisalardan biridir. Ular nafaqat ilmiy bilimlar markazi, balki shaxs maʼnaviy kamolotining asosiy tayanchlaridan biri sifatida shakllangan. Universitetlarning paydo boʻlishi — inson tafakkurining diniy dogmatizmdan mustaqil fikrlash sari evolyutsion siljishining ifodasidir. Bu davrda taʼlim, axloq, eʼtiqod va falsafaning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida shaxsning maʼnaviy olami yanada chuqurlashdi. Shunday qilib, oʻrta asr universitetlari, bir tomondan, ilohiyot, mantiq, metafizika va axloqiy meʼyorlar asosida shaxsni tarbiyalagan boʻlsa,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

ikkinchi tomondan, insonni “komil mavjudot” sifatida anglash konsepsiyasini shakllantirgan [1, 25-40-b].

Ma’naviy kamolot kategoriyasi o’rta asrlar falsafasida insonning mohiyati va maqsadini aniqlovchi markaziy tushuncha sifatida qaralgan. Forobiy, Ibn Sino, Foma Akvinskiy va Avgustin singari mutafakkirlar insonning ma’naviy yetukligi ilm, e’tiqod va axloqiy amaliyotning uyg’unligida shakllanishini ta’kidlaganlar [2, 45-52-b]. Universitet tizimi esa aynan shu uchlikni — bilim, e’tiqod va axloqiylikni yagona tarbiya konsepsiyasiga aylantirgan. Shaxs ma’naviy kamoloti o’rta asr universitetlarida faqat bilim olish emas, balki mavjudot mohiyatini anglash, o’z “men”ini ruhiy jihatdan yuksaltirish jarayoni sifatida talqin qilingan [3, 103-115-b]. O’rta asr universitetlari ijtimoiy institut sifatida insonning jamiyatdagi o’rnini falsafiy jihatdan aniqlab bergan. Bu tizimda ta’lim jarayoni ilohiylik va insonparvarlik g’oyalariga asoslanar edi. Natijada universitet bitiruvchisi nafaqat mutaxassis, balki “ma’naviy etuk shaxs” bo’lishi kerak edi. Shunday model bugungi ta’lim falsafasida ham dolzarbligini yo’qotmagan — zamonaviy universitetlar ham insonni faqat kasbiy jihatdan emas, balki ma’naviy jihatdan ham kamol toptirishni asosiy maqsad sifatida ilgari surmoqda [4, 70-82-b].

Mazkur maqola o’rta asr universitetlarining shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishdagi falsafiy-ma’rifiy asoslarini ochib berish, ularning bugungi ta’lim paradigmasiga ta’sirini tahlil qilish hamda Sharq va G’arb universitet an’analari umumiy g’oyaviy asoslarini aniqlashga qaratilgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda o’rta asr universitetlarining shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishdagi falsafiy-ma’rifiy asoslarini ochib berish uchun tarixiy-falsafiy, aksiologik, fenomenologik va sotsiokulturniy metodlar uyg’un qo’llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini G’arb va Sharq uyg’unlash davri mutafakkirlarining ilm, axloq va e’tiqod o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik haqidagi qarashlari tashkil etadi [5, 112-124-b].

1. Tarixiy-falsafiy metod. Bu yondashuv o’rta asr universitetlarini sivilizatsion jarayonning muhim bosqichi sifatida tahlil qilishga imkon berdi. Universitetlar o’sha davrda nafaqat ta’lim maskani, balki ijtimoiy ongini shakllantiruvchi ma’naviy



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

markazlar bo'lgan. Bu metod orqali Bolonya, Sorbonna, Oksford, Al-Azhar va Nizomiya kabi ilmiy muassasalar misolida bilim va ma'naviyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlab berildi.

2. Aksiologik metod. Aksiologik (qadriyatlar asosidagi) tahlil o'rta asr universitetlarining insonning ichki dunyosiga, ma'naviy o'sishiga ta'sirini o'rganishda asosiy vosita bo'ldi. Ushbu yondashuv orqali ilmning faqat utilitar (amaliy) emas, balki ruhiy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilinishi aniqlanadi [6, 141-150-b]. Forobiy, Ibn Sino va Akvinskiy ta'limotlarida bilimning maqsadi insonni "ezgulik sari yo'naltirish" sifatida ko'rilgani asoslandi.

3. Fenomenologik metod. Fenomenologik tahlil yordamida o'rta asr universitetlari tajribasi insonning ichki ong holatlarini o'rganishga imkon berdi. Universitetda ta'lim olgan shaxs uchun "bilish jarayoni" — bu "ruhiy poklanish" jarayoniga tenglashtirilgan. Bu holat G'arbda Akvinskiy, Sharqda esa Al-G'azzoliy falsafasida keng yoritilgan.

4. Sotsiokulturniy metod. Bu metod yordamida o'rta asr universitetlarining jamiyatdagi ma'naviy rolini aniqlashga e'tibor qaratildi. Universitetlar o'z davrining madaniy, diniy va axloqiy ehtiyojlariga javob bergan ijtimoiy institutlar sifatida ko'rib chiqildi. Ular ijtimoiy ierarxiyada ruhiy yetakchilik markazi bo'lib, ilm orqali insonni komillikka yetaklovchi kuchga aylangan [7, 67-74-b].

Natijada, tadqiqot metodologiyasi o'rta asr universitetlarini shunchaki tarixiy hodisa sifatida emas, balki insoniyat ma'naviy evolyutsiyasining muhim bosqichi sifatida ilmiy tahlil qilishga imkon berdi.

Natija

Tadqiqot davomida aniqlanganki, o'rta asr universitetlari shaxs ma'naviy kamolotini shakllantirishda nafaqat bilim beruvchi markaz, balki axloqiy-ma'naviy yetuklikni targ'ib qiluvchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritgan. Ularning asosiy maqsadi insonni "komil mavjudot" darajasiga ko'tarish, ilm va e'tiqod orqali ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash edi [8, 54-66-b].

1. Universitetlarning ma'naviy-ma'rifiy modeli. O'rta asr universitetlari diniy dogma va falsafiy tafakkurni muvozanatli birlashtira olgan. Bolonya va Sorbonna universitetlarida axloq, teologiya, mantiq va ritorika darslari inson ongini faqat



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

bilishga emas, balki ezgulikka intilishgayo‘naltirgan. Bu davrda o‘qituvchi — faqat bilim manbai emas, balki ma‘naviy yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida hurmat qilingan. Shaxs kamoloti ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

2. Bilim va e‘tiqod sintezi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘rta asr universitetlari ilmni ilohiylikdan ajratmagan, balki uni ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin qilgan. Forobiy va Ibn Sino asarlarida bilim “ruhiy poklanish” va “haqiqat sari sayohat” deb ta‘riflanadi [9, 90-96-b]. Shu bois, o‘rta asr universitetlarida shaxs kamoloti ilmiy tafakkur bilan bir qatorda e‘tiqodiy yuksalish orqali amalga oshgan. Bu yondashuv “aqli imon” konsepsiyasiga asos bo‘lgan — ya‘ni inson bilim orqali e‘tiqodni chuqurlashtiradi.

3. Axloqiy tarbiya va ichki intizom. O‘rta asr universitetlarining ichki nizomlarida talabalar axloqiy xulq-atvor, rostgo‘ylik, kamtarlik, poklik va sabr kabi qadriyatlarni o‘zlashtirishga majbur bo‘lgan. Axloqiy me‘yorlar ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Shu tariqa, ta‘lim “bilish jarayoni” emas, balki shaxsni ruhiy yetuklik sari yo‘naltiruvchi amaliy tarbiya tizimi sifatida shakllangan.

4. Ma‘naviy kamolotning ijtimoiy ko‘lami. Universitetlar o‘rta asr jamiyatida ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan. Ular o‘z bitiruvchilarini faqat ilm ahli emas, balki jamiyatning axloqiy ustunlari sifatida tayyorlagan. Bu holat o‘sha davr ijtimoiy tuzilmalarida universitet bitiruvchilariga yuqori obro‘ berilishida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Natijada, o‘rta asr universitetlari ma‘naviy kamolotni insoniy taraqqiyotning markaziy mezoni sifatida e‘tirof etgan. Bu tizimda shaxsning yetukligi bilimning hajmida emas, balki axloqiy amaliyot va ruhiy uyg‘unlikda o‘lchangan.

Munozara

O‘rta asr universitetlarining shaxs ma‘naviy kamolotidagi o‘rni masalasini tahlil qilish ularni faqat tarixiy ta‘lim tizimi sifatida emas, balki g‘oyaviy-ma‘naviy maktab sifatida anglashni talab etadi. Bu jarayonning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun Sharq va G‘arb falsafiy maktablarining o‘zaro ta‘sirini solishtirish muhimdir.

1. Sharq va G‘arb ma‘rifiy modelining umumiy jihatlari. Sharqdagi madrasalar (Nizomiya, Al-Qaraviyin, Al-Azhar) va G‘arbdagi universitetlar (Bolonya,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

Sorbonna, Oksford) o‘rtasida shaklan farqlar bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi g‘oya — ilm orqali insonni ruhiy yetuklikka olib chiqishtamoyili edi. Forobiy va Ibn Sino insonning maqsadini “baxtga erishish” deb bilgan bo‘lsa, Foma Akvinskiy bu g‘oyani “ilohiy mukammallikka intilish” bilan bog‘lagan. Ikkala konsepsiyada ham ilm ma’naviy komillikka eltuvchi vosita sifatida talqin etiladi [10, 200-214-b].

2. Ma’naviy kamolot konsepsiyasining falsafiy ildizlari. Forobiy “Fozil shahar ahlining qarashlari” asarida jamiyat taraqqiyotini faqat axloqiy va aqliy yuksalish orqali amalga oshirish mumkinligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bilimli, adolatli va halol shaxs — fozil jamiyatning markazidir. Bu g‘oya keyinchalik musulmon Sharqining ma’rifiy maktablarida asosiy tamoyilga aylangan. Foma Akvinskiy esa “Summa Theologica”da insonning bilimga intilishi — Xudoning ilohiy nuriga yaqinlashish shaklidir, deb ta’kidlaydi. Bu qarashlar, mazmunan farqli bo‘lsa-da, mohiyatan bir-birini to‘ldiradi: har ikkisi axloq va aqlning birligiga asoslanadi.

3. Universitetlarning ijtimoiy-ma’naviy missiyasi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘rta asr universitetlari o‘z davrida “bilim aristokratiyasi”ni yaratgan, ya’ni bilimli inson jamiyatning ma’naviy yetakchisi sifatida e’tirof etilgan. Bu hodisa nafaqat G‘arbda, balki Sharqda ham mavjud edi. Bag‘doddagi Nizomiya madrasasida o‘qigan talabalar nafaqat diniy bilimlarni, balki falsafa, mantiq, tibbiyot, adabiyot va musiqani ham o‘rganishgan — bu esa ko‘p qirrali, ma’naviy uyg‘un shaxs modelini yaratgan.

4. Zamonaviy ta’lim falsafasi uchun saboqlar. Bugungi universitetlar ko‘p hollarda texnologik kompetensiyalarni ustuvor qo‘ygan bir paytda, o‘rta asr universitetlarining ma’naviy merosi yana qayta qadrlanmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi insonni nafaqat bilim bilan, balki ma’naviy immunitet bilan qurollantirishi lozim. O‘rta asr universitetlarining eng katta saboqlardan biri — “bilimning qiymati, agar u insonni axloqiy jihatdan o‘zgartirmasa, to‘liq emas”, degan falsafiy qarashdir. Shu nuqtada, o‘rta asr universitetlari insonparvarlik va ma’naviyatning umuminsoniy poydevorini yaratganini ta’kidlash mumkin.

Xulosa

O‘rta asr universitetlari insoniyat tarixida nafaqat ta’lim tizimining, balki ma’naviy sivilizatsiya modeliningshakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutgan. Tadqiqot natijalari



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

shuni ko'rsatadiki, bu davr universitetlari ilmni faqat bilim o'rganish vositasi sifatida emas, balki axloqiy komillik va ruhiy uyg'unlikka eltuvchi yo'l sifatida talqin etgan. Ularning asosiy maqsadi insonni "komil mavjudot" darajasiga yetkazish bo'lgan. Bu esa ta'lim, e'tiqod va axloqning bir-biridan ajralmaganligini ko'rsatadi. Universitetlar o'rta asr jamiyatida bilim, e'tiqod va ma'naviyatning muvozanatli uyg'unligiga asoslangan ma'rifiy muhitni yaratgan.

Sharqdagi madrasalar va G'arbdagi universitetlar o'rtasida tashkiliy farqlar bo'lsa-da, ularni birlashtirgan umumiy falsafiy poydevor — insonni ma'naviy yuksaltirish, axloqiy yetuklikka erishish, jamiyatni fozil qadriyatlarga tayanib boshqarish g'oyasi edi. Bu qadriyatlar bugungi global ta'lim tizimi uchun ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Zamonaviy ta'lim siyosati uchun o'rta asr universitetlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki:

bilim faqat utilitar maqsad bilan emas, ma'naviy maqsad bilan uyg'un holda o'zlashtirilgandagina insonni to'liq kamolga eltadi;

universitetlar jamiyatda ma'naviy yetakchilik markaziga aylanganda, u ijtimoiy barqarorlikning kafolatiga aylanadi;

shaxs kamoloti — bu faqat kasbiy yutuq emas, balki axloqiy va ruhiy yuksalish jarayonidir.

Shu bois, o'rta asr universitetlarining falsafiy-ma'rifiy merosini qayta o'rganish bugungi ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. U insonni raqamli dunyo sharoitida ham o'z ma'naviy "men"ini yo'qotmasdan, ilm va axloq uyg'unligida yashashga da'vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rashdall, H. The Universities of Europe in the Middle Ages. Oxford: Clarendon Press, 1895. — 640 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar ahlining qarashlari. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1993. — 210 b.
3. Thomas Aquinas. Summa Theologica. London: Christian Classics, 1952.- 412 b.
4. Jacques Le Goff. Intellectuals in the Middle Ages. Oxford: Blackwell, 1993. - 256 b.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th October, 2025

-
5. Al-Ghazali. Ihya Ulum al-Din. Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2005. — 824 b.
 6. Ibn Sino. Kitob ush-shifo: Metafizika. Toshkent: Fan nashriyoti, 1980. — 378 b.
 7. Perkinson, H. The Possibilities of Error: A Philosophy of Education. New York: Random House, 1984. — 292 b.
 8. Umberto Eco. Art and Beauty in the Middle Ages. New Haven: Yale University Press, 1986. — 172 b.
 9. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. Toshkent: Fan nashriyoti, 1981. — 245 b.
 10. Foma Akvinskiy. Summa Theologica. Leningrad: Nauka, 1978. — 380 b.